



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI XALQ DEPUTATLARI TUPROQQAL’A TUMAN KENGASHI QARORI

Tuproqqal’a tuman “Yoshlik” mahallasi Komiljon Otaniyozov ko‘chasi, 1-uy

2022 - yil 27 - aprel

VI-56-76-12-218-K/22

Tuproqqal'a tumani hokimligi

“Yashil makon” umummilliy harakati doirasida manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlarini ekish hamda ularni parvarishlash borasida Tuproqqal’a tumanida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimi o‘rinbosari Z.Matchanovning hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-noyabr kuni “Yangi O‘zbekiston massivi”ni barpo etish va “Yashil makon” umummilliy loyihasini tatbiq etish hamda daraxtlarni ekish, parvarishlash, ko‘kalamzorlashtirish tizimini samarali tashkil etish yuzasidan o‘tkazgan videosektor yig‘ilishida Respublika miqyosida “Yashil makon” umummilliy harakati doirasida hududlarda manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlarini ekish hamda ularni parvarishlash borasida muhim topshiriq, ko‘rsatmalar berilgan.

Mazkur berilgan topshiriqlarning ijrosini ta’minlash maqsadida “Yashil makon” umummilliy harakati doirasida 2021-yil kuz masumida 240 ming dona, 2022-yil bahor mavsumida 385 ming dona ekilishi rejalashtirilgan edi.

Bugungi kunda umummilliy harakat doirasida jami 625 ming dona manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlari hamda qalamchalar korxonasi, tashkilot, muassasa, fermer xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi korxonalarini va mahalla fuqarolar yig‘inlari tomonidan ekildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-sonli Farmoni asosida hududlarda ekilgan manzarali, mevali daraxt, buta ko‘chatlarini asrash va ularni parvarish qilish borasida muhim ustuvor vazifalar belgilab olinib, jamoatchilik tomonidan muntazam ravishda nazorat ishlari olib borilmoqda.

Hozirda, “Yashil makon” umummilliy harakati doirasida hududlarda ko‘chat ekish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda.

Tuman hokimining tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Z.Matchonovning “Yashil makon” umummilliy harakati doirasida manzarali, mevali daraxt, buta ko‘chatlarini ekish va ularni parvarishlash borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobotini tinglab, muhokama qilib hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Z.Matchonovning tumanda “Yashil makon” umummilliy harakati doirasida manzarali, mevali daraxt va butalar ko‘chatlarini ekish va ularni parvarishlash borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari Z.Matchonov, tuman ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘limi boshlig‘i N.Ollaberganov hamda tumandagi korxonalar, tashkilot va muassasalar rahbarlariga:

-ekilgan daraxt ko‘chatlarini parvarishlash bo‘yicha mahallalarda nazorat tadbirlarini kuchaytirish;

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabyardagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-sonli Farmoni bilan daraxt va butalarning noqonuniy kesilishiga e‘lon qilingan moratoriy yuzasidan aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarini doimiy olib borish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman Kengashining “Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi “Yashil makon” umummilliy harakati doirasida tegishli mas‘ullarning hisobotlarini komissiya yig‘ilishlarida eshitib borsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (F.Masharipov) “Yashil makon” umummilliy harakati doirasida mahallalarda amalga oshirilgan ishlarni tuman hokimligi rasmiy veb saytida yoritib borsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman Kengashining “Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi” hamda tuman

hokimining o‘rinbosari Z.Matchanovlar zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



A.Salayev